



Forms of sexual violence against minors and measures for their prevention

Marjona JUMANAZAROVA¹

Tashkent State University of Law

ARTICLE INFO

Article history:

Received December 2024

Received in revised form

15 December 2024

Accepted 20 January 2025

Available online

25 February 2025

Keywords:

minors,
exploitation,
sexual violence,
online violence,
sexual assault.

ABSTRACT

This article presents scientific and theoretical perspectives on all forms of sexual violence committed against minors. Statistical data on crimes involving sexual violence, both globally and in our country, have been examined, and the dynamics of this type of crime have been analyzed based on these data. Additionally, the conditions and causes of such incidents have been studied. Important proposals and recommendations for their prevention are outlined.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss1-pp149-156>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy zo'rvonlikning shakllari va ularning oldini olish choralari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

voyaga yetmaganlar,
ekspluatatsiya,
jinsiy zo'rvonlik,
onlayn zo'rvonlik,
nomusga tegish.

Ushbu maqolada voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etiluvchi jinsiy zo'rvonliklarning barcha shakllari haqida ilmiy-nazariy qarashlar yoritib berilgan. Dunyoda va mamlakatimizda jinsiy zo'rvonliklar ko'rinishida bo'lgan jinoyatlar haqida statistik ma'lumotlarni o'rganish va ushbu ma'lumotlar yordamida jinoyatchilik ayni ko'rinishining dinamikasi tadqiq etilgan. Shuningdek, bu kabi holatlarning vujudga kelishiga oid shart-sharoitlar va sabablar o'rganilgan. Ularning oldini olish uchun muhim taklif va tavsiyalar bayon etilgan.

¹ PhD, Tashkent State University of Law. Tashkent, Uzbekistan. E-mail: botirqizi@mail.com

Формы сексуального насилия в отношении несовершеннолетних и меры по их предотвращению

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

несовершеннолетние, эксплуатация, сексуальное насилие, онлайн-насилие, изнасилование.

В данной статье представлены научно-теоретические взгляды на все формы сексуального насилия, совершаемого в отношении несовершеннолетних. Исследованы статистические данные о преступлениях, связанных с сексуальным насилием, как в мире, так и в нашей стране, а также на основе этих данных проанализирована динамика данного вида преступности. Кроме того, изучены условия и причины возникновения подобных явлений. Изложены важные предложения и рекомендации по их предотвращению.

Voyaga yetmaganlar (qaysi jinsga mansub ekanligidan qat'i nazar)ga nisbatan jinsiy zo'rvonlik deganda, keng ma'noda, ularning jismoniy, aqliy va yoki lingvistik rivojlanish darajasi jihatdan holatga baho bera olmasligi sababli ongli ravishda rozilik bera olmaydigan yoshda ekanligidan foydalanib, ularning irodasiga qarshi sodir etilgan har qanday faol yoki nafaol jinsiy harakatni tushunish mumkin. BMT bolalar jamg'armasi (UNICEF) tomonidan berilgan ta'rifga ko'ra, bolaga nisbatan jinsiy zo'rvonlik "bolaga qarshi, shu jumladan ekspluatatsiya maqsadida sodir etilgan va natijada shikastlanish, og'riq yoki psixologik azob-uqubatlarga olib keladigan yoki yuzaga kelishi ehtimoli yuqori bo'lgan har qanday qasddan, ehtiyotsizlikdan va ahamiyatsiz jinsiy xarakterdagi harakat"ni anglatadi. A. Vlasov jinsiy jinoyatlar tushunchasiga "voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etiladigan qonun bilan qo'riqlanuvchi shaxsning jinsiy daxlsizlik va erkinligiga tajovuz qiluvchi, jismoniy va ruhiy rivojlanishiga qarshi qaratilgan ijtimoiy xavfli, qasddan sodir etiluvchi qilmish" sifatida ta'rif bergan. Bizning fikrimizcha, voyaga yetmaganlarga sodir etiluvchi jinsiy xarakterdagi zo'rvonlik aybning ehtiyotsizlik ko'rinishida bo'lmay, faqat qasddan sodir etilishi mumkin. Sababi shundan iboratki, bu ko'rinishga ega qilmishni sodir etuvchi shaxs o'zining harakatlarining ijtimoiy xavfli xususiyatga egaligini anglagan holda ayni qilmishning sodir etilishini xohlaydi. Shaxs aybiga nisbatan o'z-o'ziga ishonish va beparvolik ko'rinishdagi munosabat uchramaydi.

Bu kabi holatlarning ijtimoiy jihatdan to'liq qoralanishining tub mohiyati ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxslarning voyaga yetmaganlarning jinsiy rivojlanishiga salbiy ta'sir o'tkazish bilan bog'liq tarzda, o'z pozitsiyasi va kuchlaridan foydalanib, jinsiy ehtiyojlarini bola hisobidan qondirishida ko'rinadi.

Yuqorida keltirilgan ta'rif shuni anglatadiki, agar voyaga yetmagan shaxs (16 yoshga to'lmagan shaxs) so'z yuritilayotgan harakatni amalga oshirilishiga rozilik bergan bo'lsa ham va hatto, uning tashabbuskori o'zi bo'lsa ham voyaga yetmagan shaxsga nisbatan jinsiy zo'rvonlik sodir etildi, deyishga asos mavjud bo'ladi.

Voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy zo'rvonliklar qanday shakllarda amalga oshirilishi mumkin? degan savol bugungi kunda dolzarb hisoblanadi, sababi, ularning doirasi juda keng. Jinoyat huquqida ayni turdagi tajovuzning ikki shakli ajratiladi tanaga bevosita ta'sir etish (*hands-on*) va tanaga ta'sirsiz (*hands-off*). Tajovuzning birinchi shakli bola tanasiga har qanday ko'rinishda tegish, jinsiy a'zolarini manipulyatsiya qilish, tabiiy hamda g'ayritabiiy usulda jinsiy a'zolarining penetratsiyasi kabi jinsiy zo'rvonlikning og'ir ko'rinishlarida amalga oshirilishi mumkin.

Voyaga yetmaganlarga nisbatan berilgan og'zaki jinsiy maslahatlardan tortib, jinsiy mazmunga ega hikoyalar yoki voqealar aytib berish, bolaning oldida o'zga bilan jinsiy aloqa qilish yoki masturbatsiya qilish, unga jinsiy a'zolarini ko'rsatish, qasddan unga pornografik tasvirlarni ko'rsatish yoki boladan o'zi bilan jinsiy aloqa qilishni so'rash, voyaga yetmagan bilan veb-kamera orqali jinsiy aloqa qilish kabi harakatlar esa bilvosita ta'sir etish shakliga mansub sanaladi.

Bolalarga jinsiy zo'ravonlik qilishning eng ko'p uchraydigan ko'rinishlari orasida bugungi kunda quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

- a) jinsiy qo'zg'atish maqsadida bolalar yoki o'smirlar oldida jinsiy a'zolarini ko'rsatish;
- b) voyaga yetmaganlarni kiyinish, yechinish vaqtida kuzatib turish;
- c) jinsiy ehtiyojlarini qondirish maqsadlarida bolaga teginish, o'pish va jismoniy ta'sirning turli ko'rinishlari;
- d) bolaga qaratilgan jinsiy mazmundagi og'zaki erkalashlar, xushomad, shilqimlik qilish;
- e) bolalarni pornografik tasvirlar yoki filmlarni tomosha qilishga majbur qilish;
- f) bolalarni jinsiy aloqa qilishga undash yoki majburlash;
- g) jinsiy ekspluatatsiya, bolalar fohishabozligi yoki pornografiyada bolalar yoki o'spirinlardan foydalanish.

Shuningdek, raqamli ommaviy axborot vositalari orqali jinsiy zo'ravonlikka duchor bo'lish holatlari ham bugungi kunda keng uchrab turadi va ularni ham zo'ravonlikning ikkinchi shakli tarkibiga kiritish mumkin. Masalan, kiberhujum, seksting (provakatsion jinsiy mazmundagi rasm va videolarni raqamli shaklda tarqatish) yoki pornografiya bilan istalmagan to'qnashuv natijasida ham zo'ravonlik amalga oshirilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etiladigan jinsiy mazmundagi bir qator qilmishlar uchun javobgarlik belgilangan, masalan:

- a) O'zbekiston Respublikasi JKning 118-moddasining 3-qism "a" bandi va 4-qismi;
- b) O'zbekiston Respublikasi JKning 119-moddasining 3-qism "a" bandi va 4-qismi;
- c) O'zbekiston Respublikasi JKning 128-moddasi;
- d) O'zbekiston Respublikasi JKning 128¹-moddasi;
- e) O'zbekiston Respublikasi JKning 129-moddasi;
- f) O'zbekiston Respublikasi JKning 130-moddasining 3-qismi;
- g) O'zbekiston Respublikasi JKning 131-moddasining 4-qism "a" bandi;
- h) O'zbekiston Respublikasi JKning 135-moddasining 3-qism "a" bandi;
- i) O'zbekiston Respublikasi JKning 141³-moddasi;

Bugungi kunda voyaga yetmaganlarning jinsiy zo'ravonlikka duchor bo'lish darajasi naqadar kengayganini Birlashgan Millatlar Tashkiloti taqdim etgan ma'lumotlar ham tasdiqlaydi. Masalan, dunyo bo'ylab 650 million ayol-qiz (har 5 ayol-qizdan biri) bolalik davrida jinsiy zo'ravonlik qurboni bo'lgan bo'lib, ulardan 370 milliondan ortig'i bolalikda nomusga tegish va jinsiy zo'ravonlikning bevosita shakllariga duchor bo'lgan. Erkak jinsi vakillariga mansub shaxslar ham bu kabi tajovuzlardan chetda qolmagan. Misol uchun, 410–530 million o'g'il bola (har 7 shaxsdan biri) jinsiy tajovuzga duch kelgan.

Dunyo miqyosida ayniqsa COVID-19 pandemiyasi davrida bolalarga nisbatan online va offline ko'rinishdagi jinsiy zo'ravonliklar soni keskin oshishi kuzatilgan. Bu kabi holatlarning soni oshishiga so'z borayotgan davrda, bizningcha, bir qator sabab va shart-sharoitlar yuzaga kelgan:

- a) COVID-19 davrida uydan chiqishda o'rnatilgan cheklov choralari bolalarning ta'lim, ko'ngil ochish va ijtimoiy maqsadlarda onlayn o'tkazadigan vaqtining oshishi;
- b) onlayn faoliyat olib boruvchi huquqbuzarlarning ham internetda o'tkazadigan vaqtlari ko'payishi;
- c) COVID-19 paytida bolalar o'yinlar, suhbatlar, ijtimoiy tarmoqlar va boshqalar orqali muloqot qilishning muqobil usullarini izlashni boshlashgan, bolalar bo'sh vaqtlarining ko'payishi sababli turli tazyiqlarga duch kelish imkonining oshganligi;
- d) bolalar online duch kelayotgan nomaqbul ko'rinishdagi ma'lumotlar bo'yicha kimga murojaat etish bo'yicha ma'lumotlarga ega bo'lmaganliklari;
- e) ota-onalar bolaning internetda sarflayotgan vaqtini to'g'ri taqsimlash va nazorat qilishda sustkashlikka yo'l qo'yishganliklari.
- f) huquqni muhofaza qiluvchi organlarning bolalarga nisbatan kuzatiluvchi online jinsiy zo'ravonlik holatlarini nazorat qilishda yetarli imkoniyat, xodimlar va texnikalarga ega bo'lmaganligi;
- g) darknet foydalanuvchilari (huquqbuzarlar) tomonidan yaratilgan ommaviy foydalanishdagi tazyiqlar aks etgan materiallarni ularni cheklashga mas'ul organlar tomonidan yo'q qilish vaqti cho'zilganligi sababli, ular yangi shu kabi materiallarini yaratish va tarqatish uchun ushbu imkoniyatlardan foydalana boshlaganligi va boshqalar.

B. Kolbasinning fikriga ko'ra, voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy zo'ravonlikning soni oxirgi yillarda oshganligining sababi, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchilarning yoshi sezilarli darajada qisqarganligiga, online o'yin ko'rinishidagi yoki online video hosting xizmatlarining, internet resurslarining soni ortishi va bundan jinoyatchilar o'zlarining jinsiy ehtiyojini qondirish va jabrlanuvchilarni izlashda foydalanish imkonini qo'lga kiritayotganligi bilan bog'liq.

Masalan, Interpolning 2020-yil sentyabrda "Bolalarni jinsiy ekspluatatsiya qilish va zo'rlik ishlatish tahdidlar va tendensiyalar" yuzasidan taqdim etilgan hisobotga ko'ra, Interpol Xalqaro bolalar jinsiy ekspluatatsiyasi (ICSE) ma'lumotlar bazasidan muntazam foydalanadigan Interpolga a'zo davlatlarning 60 %i ushbu bazaga murojaat qilmagan yoki COVID-19 pandemiyasi davrida ularning faoliyati sezilarli darajada kamaygan. Bu kabi salbiy holatlarning oshishi bolalarga nisbatan mavjud jinsiy zo'ravonliklar sonini bir necha marta ko'payishiga olib keldi. Bugungi kunda ham tahlil olib borilgan davrning asoratlari saqlanib qolmoqda va hatto tajovuzning yangi-yangi ko'rinishlari shakllanayotganining sabablari ham o'sha davrda vujudga kelgan shart-sharoitlar ta'siri, deyish mumkin.

Online jinsiy zo'ravonliklar ayniqsa ijtimoiy tarmoqlarda ko'p vaqtini sarflovchi bolalarga nisbatan yo'naltirilgan holda jinsiy zo'ravonlikning maishiy ko'rinishi oila a'zosi tomonidan boshqa a'zoning jinsiy daxlsizlik huquqini buzishga yo'naltirilganligiga e'tibor berish lozim. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, o'rnatilgan "harakat cheklovlari, daromadni yo'qotish, izolyatsiya, yuqori darajadagi stress va tashvish bolalarning uyda jismoniy, psixologik va jinsiy zo'ravonlikni boshdan kechirish va kuzatish ehtimolini oshiradi, ayniqsa, allaqachon zo'ravonlik yoki noto'g'ri oilaviy vaziyatlarda yashayotgan bolalarga nisbatan bunday zo'ravonliklar soni bir necha barobar oshgan". *D. Browning* hamda *B. Boatmanning* ta'kidlashicha, oilaviy jinsiy zo'ravonlikka uchragan bolalar ko'p hollarda erkak (ota) tomonidan zo'ravonlik qurboni bo'lishadi. Onaning ishtiroki esa bu borada passiv ko'rinishga ega. Bizningcha, ayollar tomonidan bolalarga nisbatan jinsiy zo'ravonlik sodir etilishi holatlari kamligiga

ayollarning tabiiy instinkti, oiladagi roli, qo'rquv, jismonan kuchsizlik holatlari rol o'ynaydi. Biroq, bolalarga nisbatan bundan ko'rinishdagi jinsiy zo'rvonlik sodir etuvchining jinsi muhim hisoblanmay, qonunga ko'ra ham ayol, ham erkak tomonidan sodir etilgan qilmish birdek jinoiy javobgarlik keltirib chiqaradi.

Yana bir tahlilga muhtoj vaziyat shundan iboratki, agar voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy ko'rinishdagi zo'rvonlik aynan voyaga yetmagan tomonidan sodir etilishi hollari sanaladi. Sababi, jinsiy zo'rvonlik aynan voyaga yetmaganlar tomonidan ham, voyaga yetgan shaxs tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin. Lekin, ushbu zo'rvonlik uchun javobgarlik kelib chiqishi biroz murakkab holatlardan hisoblanadi.

A. Xomenko voyaga yetmaganga nisbatan jinsiy xususiyatga ega zo'rvonlik sodir etilishida jinoyat subyekti sifatida faqat voyaga yetgan shaxs aybdor bo'lishi mumkin degan fikr bildirgan bo'lsa, *A. Martirosyan* voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy zo'rvonlik hollari yuz berishi deb javobgar sifatida topilishi mumkin bo'lgan shaxs sifatida yoshi jabrlanuvchidan katta bo'lgan har qanday shaxs sanalishi mumkinligi haqida fikr yuritgan. Ushbu olimning fikriga ko'ra, aynan jinsiy zo'rvonning yoshi jabrlanuvchiga nisbatan 2 yosh kattaroq bo'lishi kerak bo'ladi. Biroq, bizning fikrimizcha, jinsiy zo'rvonlik uchun xuddi boshqa jinoyatlar uchun bo'lgani kabi jinoyat subyekti bo'la oladigan yoshga to'lgan, aqli raso jismoniy shaxslar javobgar bo'lishi mumkin, xolos. Shu sababli, so'z borayotgan ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsning yoshi jabrlanuvchidan 2 yoki 3 yosh katta bo'lishi lozimligi haqidagi vajlar asossiz deb hisoblaymiz. Masalan, O'zbekiston Respublikasi JKning 118-moddasining 3-qism "a" bandi va 4-qismi, 119-moddasining 3-qism "a" bandi va 4-qismida nazarda tutilgan qilmishni sodir etganlik uchun 14 yoshga to'lgan shaxs javobgarlikka tortilishi mumkin. Bu degani, 14 yoshga to'lgan shaxsning 14 yoshga to'lmagan shaxsning nomusiga tegishida ifodalanuvchi qilmishi ham jinoyat tarkibi subyekti mavjudligini ko'rsata oladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi JKning 128, 128¹, 129, 130-moddasining 3-qismi, 131-moddasining 4-qism "a" bandi, 135-moddasining 3-qism "a" bandi hamda 141³-moddasida nazarda tutilgan qilmishlar uchun 16 yoshga to'lgan voyaga yetmagan shaxs jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin. Demak, jinoyat qonunchiligida "voyaga yetmagan" tushunchasiga uning ikki tomonlama maqomi (jinoyatchi yoki jabrlanuvchi)ni inobatga olgan holda, ko'p qirrali ekanini hisobga olib yuridik baholanishi lozim. Shu sababli, voyaga yetmagan jinoyatchining voyaga yetmaganga nisbatan jinsiy zo'rvonlik bilan tavsiflanuvchi qilmishi jinoyat qonunida ayni ijtimoiy xavfli qilmish uchun belgilangan yosh doirasida ko'rib chiqilishi kerak.

Quyida biz so'nggi yillarda aynan jinsiy zo'rvonlik bo'yicha mamlakatimizda hisobga olingan jinoyatlar haqida tahlil olib boramiz. Respublikamizda 2024-yilning 11 oyi davomida voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan umumiy jinoyatlarning soni 2502 tani tashkil etgan bo'lsa, 2023-yil davomida esa voyaga yetmaganlar (13–17 yosh) tomonidan jami 3599 ta jinoyat sodir etilgan. Bu esa joriy yilda ushbu shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar soni keskin oshganini (1097taga) anglatadi. 2024-yilning 11 oyi davomida voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan nomusga tegish bilan bog'liq 31ta jinoyatlar sodir etilgan bo'lib, bu umumiy jinoyatlarning 1,2%ini tashkil etadi. Ularning eng katta qismi (7 tasi) Toshkent shahrida sodir etilgan bo'lsa, Buxoro, Namangan, Xorazm, Surxondaryo va Qoraqalpog'iston Respublikasi hisobiga voyaga yetmaganlar tomonidan nomusga tegish jinoyatining eng kam ko'rsatkichi to'g'ri kelgan bo'lib, ushbu hududlarda so'z yuritilayotgan davrda 1 tadan ayni qilmishlar sodir etilgan.

O'zbekiston Respublikasi JKning 130-moddasida nazarda tutilgan pornografik mahsulotlarni tayyorlash, olib kirish, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish bilan bog'liq 10ta jinoyat (umumiy jinoyatlarning 0,22%i) qayd etilgan bo'lib, aynan mazkur moddaning 3-qismi bo'yicha ma'lumotlar mavjud emas.

Jinsiy zo'ravonlikni boshdan kechirgan voyaga yetmaganlar keyinchalik voyaga yetganlaridan so'ng ham bu kabi zo'ravonliklarning qurboni bo'lishlari, bu esa butun jamiyatning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishiga olib kelishi mumkin. Shu sababdan ham ushbu holatlarga befarq qarash mumkin emas. *Y.M. Antonyanning* fikricha, "jinsiy jinoyatlarga qarshi samarasiz kurashilmoqda. Jamiyat, o'z navbatida, ko'proq profilaktika choralari kutmoqda va jazo retsdiv jinoyat ehtimolini istisno qiladigan darajada og'irlashtirilishi kerak", deb hisoblaydi. Albatta, biz ham ushbu fikrlarni qo'llab quvvatlaymiz. Biroq, unutmashimiz kerakki, jinsiy zo'ravonlik odatda latent ko'rinishda bo'ladi. Voyaga yetmagan bola o'ziga nisbatan bo'layotgan yoki uning oila a'zolari bolasiga nisbatan sodir etilayotgan jinsiy zo'ravonlik belgilarini tanimasligi mumkin, shuningdek bola juda yosh ekanligi, qattiq qo'rquv ta'sirida qolganligi va yoki ularga qaratilgan bunday ko'rinishdagi zo'ravonlik haqida aytishdan uyalishi holatlari ayni zo'ravonliklarning latent ko'rinish olishiga olib kelmoqda.

Bolalarga nisbatan jinsiy zo'ravonlik – bu shaxsiy, oiladagi, ijtimoiy darajadagi sabablar va sharoitlar bilan bog'liq ko'p qirrali muammo, desak bo'ladi. Shaxsga bog'liq darajadagi shart-sharoitlar sirasiga kichik yoshdaligi, jinsi kabi biologik va zo'ravonlikni aniqlashga doir bilimlarning yetishmasligi, ruhiy nosog'lom ekanligi kabi omillarni keltirib o'tish mumkin. Oiladagi muhitdan kelib chiqadigan bo'lsak, voyaga yetmaganlarning jinsiy zo'ravonlik qurboniga aylanishiga bu darajada bolaning o'z ota-onasi yoki ularning o'rnini bosuvchilar bilan ruhiy aloqaning yo'qligi, to'liq bo'lmagan oilada yashaganlik, ijtimoiy oilada avval shu kabi zo'ravonlik sodir etgan yoki unga moyil shaxslarning borligi, voyaga yetmagan shaxsni majburiy nikohga berilishi kabi holatlarni sanab o'tish mumkin.

Ijtimoiy darajada jamiyatda bolalarga bo'ladigan har qanday ko'rinishdagi zo'ravonlikning normal sifatida qabul qilinishi, ijtimoiy tengsizlikning qaror topishi, ijtimoiy himoyaning mavjud emas yoki yetarli emasligi, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning bu kabi huquqbuzarliklarni profilaktikasi yetarli darajada amalga oshirilmasligi, aholi huquqiy ong va madaniyatining quyi darajadaliigi, jinsiy zo'ravonlik mavzusining jamiyatda ochiq muhokama qilinmasligi kabilar va boshqalar bo'lishi mumkin.

Bolalarga nisbatan jinsiy zo'ravonlikning oldini olish bo'yicha bir qator samarali chora-tadbirlarni quyida sanab o'tamiz:

1. Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilishga qaratilgan qonunlar va siyosatlarini ishlab chiqish va amalga oshirish muhimdir. Masalan, O'zbekistonda 2024-yil 14-noyabrda qabul qilingan "Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi Qonun (2025-yil 15-mayda kuchga kiradi) bolalarning huquqlarini himoya qilishda muhim qadam hisoblanadi.

2. Bolalar, ota-onalar va jamiyat a'zolarini jinsiy zo'ravonlikning belgilari, xavflari va oldini olish usullari haqida xabardor qilish zarur. Maktablarda bolalarga nisbatan jinsiy zo'ravonlikning oldini olish bo'yicha dasturlarni joriy etish orqali bolalarga o'zlarini himoya qilish ko'nikmalarini o'rgatish mumkin.

3. Zararli ijtimoiy va madaniy me'yorlarni bartaraf etish uchun ijtimoiy xulq-atvorni o'zgartirish strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish lozim.

4. Bolalarning internetdagi xavfsizligini ta'minlash uchun maxsus resurslar va vositalarni yaratish lozim. Masalan, O'zbekistonda "Safeme.uz" veb-sayti bolalar, ularning tarbiyachilari va keng jamoatchilik uchun muhim onlayn xavfsizlik ma'lumotlarini taqdim etadi. Ushbu veb-saytning maqsadi yoshlar, o'smirlar va bolalar uchun "xavfsiz internet makoni"ni yaratishga, turli buzg'unchi, yovuz g'oyalar, fikrlar, xabarlar ta'siridan ularni himoyalash hisoblanadi.

5. Bolalarga nisbatan zo'ravonlikning sabablari va oqibatlarini o'rganish, statistik ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish orqali profilaktika chora-tadbirlarini takomillashtirish mumkin.

6. Jabrlangan bolalar uchun reabilitatsiya va psixologik yordam markazlarini tashkil etish.

Xulosa qilish mumkinki, bolalarga nisbatan jinsiy zo'ravonlik ijtimoiy va huquqiy muammolar bilan bog'liq bo'lib, uning oldini olish uchun kompleks yondashuv talab etiladi. Bu muammoga qarshi kurashda huquqiy islohotlar, ta'lim va xabardorlik dasturlari, ijtimoiy yordam va texnologik xavfsizlik choralari muhim ahamiyat kasb etadi. Zo'ravonlikning oldini olish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, bu muammo nafaqat individual, balki ijtimoiy darajada ham hal etilishi lozim. Shu bilan birga, jinoyat qonuni voyaga yetmaganning protsessual holatidan qat'i nazar, normal rivojlanishini to'liq himoya qilishi ham kerak bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. United Nations Children's Fund, International Classification of Violence against Children, UNICEF, New York, 2023.

2. Власов Андрей Эрикович Понятие и структура преступлений против половой неприкосновенности и половой свободы личности в современном российском законодательстве // Концепт. 2015. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ponyatie-i-struktura-prestupleniy-protiv-polovoy-neprikosnovennosti-i-polovoy-svobody-lichnosti-v-sovremennom-rossiyskom> (дата обращения: 29.01.2025).

3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Masturbatsiya> (murojaat etilgan sana: 04.01.2025-yil).

4. Unicef. Sexual violence. October 2024. <https://data.unicef.org/topic/child-protection/violence/sexual-violence/#status>

5. Колбасин В. В. Тенденции развития сексуального насилия в отношении несовершеннолетних в условиях пандемии // Вестник Казанского юридического института МВД России. 2021. №4 (46). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/tendentsii-razvitiya-seksualnogo-nasiliya-v-otnoshenii-nesovershennoletnih-v-usloviyah-pandemii> (дата обращения: 29.01.2025).

6. Threats and trends child sexual exploitation and abuse: covid-19 impact. [file:///C:/Users/HP/Downloads/COVID19%2020\(2\).pdf](file:///C:/Users/HP/Downloads/COVID19%2020(2).pdf).

7. WHO (2020), Joint Leader's statement – Violence against children: A hidden crisis of the COVID-19 pandemic, viewed and retrieved 8 April 2020 from <https://www.who.int/news-room/detail/08-04-2020-joint-leader-s-statement---violence-against-children-a-hidden-crisis-of-the-covid-19-pandemic>.

8. Browning, D. H., & Boatman, B. (1977). Incest: Children at risk. *The American Journal of Psychiatry*, 134(1), 69-72. <https://doi.org/10.1176/ajp.134.1.69>.

9. Хоменко А.Н. Особенности субъективных признаков преступлений, совершаемых в отношении несовершеннолетних // Адвокат. 2012. № 3. С. 72-74.

10. Мартиросьян А.М. Насильственные половые преступления в отношении несовершеннолетних (уголовно-правовой и криминологический аспекты): Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. Ростов н/Д, 2009. С. 11-13.
11. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/crime-and-justice-2>.
12. Антонян Ю. М., Ткаченко А. А., Шастакович, Б. И. (2009) Криминальная сексология, Москва, с. 47-49.